

UDK: 31:338:6П1

QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI

Jumaev Dilshod Qurbonmuratovich

*Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar
instituti, 3-kurs tayanch doktoranti (PhD)*

e-mail: www.dilshod.576@mail.ru

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada kapital qurilish ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha ilmiy adabiyotlar ko'rib chiqiladi. Fan-texnika taraqqiyotining sanoat rivojiga, ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasi va tuzilmasini takomillashtirishga ta'siri o'rganilib, investitsiyalar va qurilishning statistik ko'rsatkichlari tizimi qiyosiy tahlil amalgam oshirildi.

Shuningdek, tadqiqotda qurilish industriyasining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi o'rni ochib berildi hamda uy-joy fondi va qurilish industriyasiga investitsiyalar o'zgarishining iqtisodiy-statistik tahlili o'tkazildi.

Qurilish majmuasidagi muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: statistik tahlil, asosiy fondlar, asosiy fondlar quvvati, kapital qurilish, pudrat usuli, xo'jalik usuli, qurilish ob'ektlarni davomiyligi, kapital qo'yilmalar, tugallanmagan qurilish ob'ektlari, investitsiya, mintaqalarning qiyosiy tahlili; qurilish sanoati, uy-joy bilan ta'minlash, arzon uylar qurish, qurilish-montaj trestlari, qurilish-montaj konsernlari, uy-joy qurish kombinatlari, yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar, asosiy fondlarning ishga tushirilishi va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish va boshqalar.

АННОТАЦИЯ. В данной статье осуществлен обзор литературы формирования показателей капитального строительства. Изучены влияния научно-технического развития на развитие отрасли, совершенствование материально-технической базы и структуры производства, а также осуществлен сравнительный анализ системы статистических показателей инвестиционно-строительной деятельности.

Также в исследовании раскрыта роль строительной отрасли в экономике Республики Узбекистан и проведен экономико-статистический анализ изменения жилищного фонда и инвестиций в строительную отрасль.

Разработаны научно-практические предложения по решению проблем в строительном комплексе.

Ключевые слова: статистический анализ, основные фонды, мощность основных фондов, капитальное строительство, подрядный метод, экономический метод, продолжительность объектов строительства, капитальные вложения, объекты незавершенного строительства, инвестиции, сравнительный анализ регионов; строительная отрасль, обеспечение жильем, строительство доступного жилья, строительно-монтажные тресты, строительно-монтажные концерны, жилищно-строительные комбинаты, крупные строительные организации, малые предприятия и микрофирмы, запуск основных фондов и инвестиции в основной капитал, новое строительство, реконструкция, расширение, техническое перевооружение и т.д.

ABSTRACT. *This article reviews the literature on the formation of capital construction indicators. The influence of scientific and technological development on the development of the industry, improvement of the material and technical base and structure of production was studied, and a comparative analysis of the system of statistical indicators of investment and construction in the activities was carried out.*

The study also revealed the role of the construction industry in the economy of the Republic of Uzbekistan and carried out an economic and statistical analysis of changes in the housing stock and investment in the construction industry.

Developed scientific and practical proposals for solving problems in the construction complex.

Key words: *statistical analysis, fixed assets, capacity of fixed assets, capital construction, economic method, extension of objects of construction, capital investment, unfinished construction projects, investments, comparative analysis of regions; construction industry, housing provision, construction of accessible housing, construction and installation trusts, construction and installation concerns, housing construction plants, large construction organizations, small enterprises and micro-firms, launch of fixed assets and investments in fixed capital, new construction, reconstruction, expansion, technical re-equipment, etc.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyoti tarmoqlari qatorida qurilish tarmog‘i nafaqat iqtisodiyotning asosiy fondlarini yaratuvchi uchastkasi sifatida, balki mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlarni hamda turli xususiyatlarga ega bo‘lgan ijtimoiy sohadagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishda muhim o‘rin va ahamiyatga egadir (demografik tuzilma va uning o‘zgaruvchanligi, qishloq aholisining yuqori darajadaligi hamda uy-joy va ijtimoiy-madaniy-maishiy ob'ektlar bilan kam ta'minlanganligi, ichki infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalar). Mamlakat milliy iqtisodiyoti moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va bozorga xizmat ko‘rsatish sohalaridan tarkib topadi. Qurilish moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari qatorida (sanoat va qishloq xo‘jaligidan keyin) uchinchi o‘rinda turadi. Masalan, 2021 yil va 2022 yillar davomida respublikamizda jami 107 447,6 mlrd. so‘m va 130 767,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati o‘zidan oldingi

yillarga nisbatan mos ravishda 106,8% va 106,6%ni tashkil etgan yoki YaIM tarkibida mos ravishda 6,2% va 6,2%ni tashkil qildi[1].

Har qanday jamiyat faoliyatining maqsadi odamlar ehtiyojlarini qondirish uchun (moddiy va nomoddiy) tovarlarni ishlab chiqarish bo'lgani kabi qurilish sanoatining asosiy maqsadi mamlakatning butun iqtisodiyotini izchil rivojlantirish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda izlanishni olib borishdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida qurilish tashkilotlari faoliyatida investitsiyalarni o'zlashtirishning iqtisodiy statistik tahlilini tashkil etish tartibi va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hisoblanadi.

Jahonda aholi turmush darajasini yaxshilashda uy-joy bilan ta'minlashni samarali tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro ekspertlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi har xil bo'lib, kishi boshiga ushbu ko'rsatkich Norvegiyada – 74,0 m² ni, AQShda – 65,0 m² ni, Daniyada- 50,6 m² ni tashkil etgan holda, ko'plab davlatlarda bu ko'rsatkich 5-10 m² ni tashkil etgan[13]. Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida qurilish tashkilotlari faoliyatini yanada rivojlantirish va aholini uy-joy bilan ta'minlash muammolarini hal qilish eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida[2] hamda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida, "... arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash"ni ko'rsatib o'tilgan[3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qurilish milliy iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida milliy xo'jalikning barcha tarmoqlari uchun asosiy fondlarni yaratishda ishtirok etadi. Ishga tushirilgan va o'rnatilgan tartibda qabul qilingan ishlab chiqarish quvvatlari va noishlab chiqarish ob'ektlari kapital qurilishning mahsuloti hisoblanadi hamda ular o'zlashtirilib borishi bilan asosiy fondlarga aylanib boradi. Qurilish tarmog'i umum va maxsus qurilish, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarini, qurilish birlashmalariga kiruvchi qurilish sanoati korxonalarini, shuningdek qurilish-montaj ishlari(QMI)ni bajaruvchi barcha tashkilotlar faoliyatini birlashtiradi.

Sh.A.Isamuxamedovanning fikricha, kapital qurilish sohasiga, o'z mablag'lari, qarz hamda davlat byudjeti mablag'lari manbalari asosidagi kapital qo'yilmalarga egalik qiluvchi buyurtmachilar faoliyati ham kiradi[4].

Qurilish materiallari, konstruksiyalari va texnikalarini tashishda amalda barcha transport turlaridan foydalaniladi (avtomobil, temir yo'l, daryo, dengiz va havo transportlari). Qurilish sarf-xarajatalari tarkibida transport xarajatlari qiymati 20 foizgacha yetadi[5].

Qurilish jarayoni uchta asosiy bosqichga ajratiladi: 1) qurilishga tayyorgarlik ishlari; 2) qurilish jarayonining o'zi; 3) tayyor holdagi qurilish ob'ektini ekspluatatsiyaga topshirish[6].

Qurilish ishlab chiqarishi jarayoniga kapital qo'yilmalar doiraviy aylanishining quyidagi uchta bosqichlari to'g'ri keladi: 1) ishlab chiqarish - asosiy fondlarni yaratishning mahsulot shakli sifatida; 2) amalga oshirish (realizatsiya) - qurilish mahsulotining asosiy fondlarga aylanishi shakli sifatida; 3) pul mablag'larini kelgusi mahsulotga aylantirish maqsadida takror ishlab chiqarishning navbatdagi davri(sikli)ni tayyorlash[7].

Bir vaqtning o'zida sodir bo'ladigan xarajatlarga qurilish tashkilotlarining asosiy fondlarni yaratish yoki sotib olish xarajatlari hamda tugallanmagan qurilish aylanma mablag'laridagi moddiy zaxiralar qiymati kiradi. Joriy xarajatlar, bu qurilish korxonasi ob'ektlarni yaratish bilan bog'liq bevosita va bilvosita barcha xarajatlari hisoblanadi: ish haqi, qurilish materiallari, amortizatsion ajratmalar va boshqa xarajatlar[8].

Qurilishning umumiy xususiyatlari quyidagicha[9]: Qurilish ishlab chiqarishi va pirovard mahsulot xarakteriga ko'ra noturg'un va vaqtinchalik bo'lib, ularning bir tipda emasligi; Qurilish jarayoni tarkibiga kiruvchi barcha operatsiyalarning texnologik jihatdan bir-biriga bog'liqligi.

Qurilish material jihatdan ko'p talab qiladigan tarmoq hisoblanadi. Pirovard qurilish mahsulotini olish uchun mazkur tarmoqqa yuqorida ta'kidlab o'tilganidek 70 tadan ortiq milliy iqtisodiyot tarmoqlari qurilish materiallarini yetkazib beradi[10].

Qurilish sohasining o'ziga xos xususiyati avvolom bor uning ishlab chiqarish konsentratsiyasi bilan bog'liqligidir. Konsentratsiya deganda mablag'lar, predmetlar va mehnat resurslarining yirik ishlab chiqarish bo'g'inlarida bir nuqtaga jamlanish jarayonini tushunish taqoza etiladi[11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqotni amalga oshirishda mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, kuzatish, solishtirish, tasviriy statistika, tanlash, umumlashtirish, guruhlash, dinamik o'zgarishni aniqlash, statistik ma'lumotlarni taxlil qilish, induksiya va deduksiya, klassifikasiyalash, statistik baholash, algoritmlashtirish, dasturlash, taqqoslash va ekspert baholash usullaridan keng foydalanilgan. Shuningdek, qurilish tarmog'ida investitsion samaradorlikning mazmun-mohiyati va uni baholash usullari bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy tadqiqotlari chuqur o'rganilib, shu bo'yicha mualliflik yondoshuvlari ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman kapital qurilish ikkita usulda amalga oshiriladi: pudrat va xo'jalik. Qurilishni olib borishning pudrat usuli asosiy hisoblanib, qurilish ishlarining ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Ular qatoriga qurilishi-montaj trestlari, qurilishi-montaj konsernlari, uy-joy qurish kombinatlari kiradi. Shuningdek, qurilish tashkilotlarining faoliyatini baholashda qurilish ob'ektlarini ishga tushirish biznes-rejasining bajarilishi asosiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va

mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Keyingi yillar davomida O'zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni keskin o'sgan. Ya'ni, 2018 yil 1 yanvar holatiga 24118 tani tashkil qilgan bo'lsa, keyingi 2019-2023 yillar 1 yanvar holatiga mos ravishda 29112 ta (o'sish sur'ati 120,7%), 36119 ta (124,3%), 40950 ta (113,1%), 43695 ta (106,7%) va 46971 ta (107,5%)ni tashkil qilib o'zidan oldingi yilga nisbatan doimiy o'sish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, 2018 yilga nisbatan keyingi yillarni solishtirsak mos ravishda 120,7%, 150,1%, 169,8%, 181,2% va 194,8%larga o'sganini ko'ramiz (1-rasm).




1-rasm. O'zbekiston Respublikasida yillar kesimida qurilish korxonalarini soni, birlik[14]

Respublikamizda qurilishga berilayotgan e'tiborning ortib borishi natijasida qurilish tashkilotlari sonining keskin oshib borayotganini kuzatish mumkin. Masalan, 2022 yilda jami 4807 ta yangi qurilish korxonasi tashkil etilib, ularning faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalariga nisbati 10,2%ni tashkil etgan. 2022-yil natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 9634tasi (20,5%) Toshkent shahrida joylashgan. Shuningdek, Toshkent viloyatida 4122 ta (8,8%) va Farg'ona viloyatida 3968 ta (8,4%) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 14880,0tani, fuqoralik ob'ektlarini qurish 5502tani va bino va inshootlar qurish 26589 tani tashkil qilgan.

Bugungi kunda respublikamiz ulkan qurilish maydonini tashkil qilmoqda. Xususan, bajarilgan qurilish ishlar hajmi bo'yicha ham katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Ya'ni, 2006 yilda qurilish ishlar hajmi 1938,4 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich keyingi yillarda o'sib borgan va ayniqsa 2009 yilda 7067,4 mlrd.so'mni, 2013 yilda 15219,3 mlrd.so'mni, 2015 yil 25423,1 mlrd.so'mni, 2018, 2019, 2020, 2021 va 2022 yillarda mos ravishda 51129,3 mlrd.so'm, 71156,5 mlrd.so'm, 87823,8 mlrd.so'm, 107447,6 mlrd.so'm va 130790,9 mlrd.so'mlarni tashkil qilgan. Tahlil qilinayotgan yillarda oldingi yilga nisbatan

yuqori o‘shish darajasiga 2009 yil, 2012 yil, 2013 yil, 2018 yil, 2019 yil, 2020 yillarda erishgan. Ya'ni, ushbu yillarda mos ravishda 134,2%, 113,7%, 117,2%, 114,3%, 122,9% va 109,1%larni tashkil qilgan (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlar xajmi[14]

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015 yilning 1 yanvaridan boshlab, “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq “Qurilish” faoliyati bo‘yicha “faoliyat turi bo‘yicha o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi” ko‘rsatkichi qo‘llaniladi.

2022 yilgi qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari shuniko‘rsatdiki, bino va inshootlar qurilishi 68,4% ulushni (o‘shish sur'ati 2021 yilga nisbatan 104,4%), fuqarolik obektlari qurilishi 21,5% (102,7%) va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 10,1% (138,2%)ni tashkil etdi. 2022 yilda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 68,6%i yoki 89695,5 mlrd.so‘mlik qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obektlarni yaratishga qaratilgan. 2022 yilda hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (18900,1 mlrd.so‘m), Farg‘ona viloyati (6424,8 mlrd.so‘m), Toshkent viloyatida (6278,8 mlrd.so‘m) va Samarqand viloyati (6 229,8 mlrd.so‘m)da qayd etilgan.

Qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish jarayonida ko‘rdikki qurilishning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi o‘zgarib borgan, ya'ni 2018 yil 5,8%ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2019-2022 yillarda mos ravishda 6,2%, 6,7%, 6,6% va 6,7%larni tashkil qilgan. 2021 yilga (6,6%) tashqari

qolgan yillarda o'sish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Qurilish tarmog'ida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat 2018 yili 21958,5 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa keyingi yillarda mos ravishda 30449,9 mlrd.so'm, 37334,8 mlrd.so'm, 45557,4 mlrd.so'm va 55522,7 mlrd.so'mlarni tashkil qilgan. O'tgan yilga nisbatan foiz hisobida tahlil qilinayotgan yillarda mos ravishda 114,3%, 122,9%, 109,5%, 106,8% va 106,6%larga o'sib borganligini kuzatishimiz mumkin. Respublikamiz bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmida ham amaldagi narxlarda o'sib borgan bo'lsada, o'tgan yilga nisbatan foizlarda solishtirganimizda turli xil o'zgarishlarni kuzatamiz. Masalan, 2019 yili 2018 yilga nisbatan 122,9%ga oshgan bo'lsa ham keyingi yillarda mos ravishda 109,5%, 106,8% va 106,6%larga kamaygan.

Asosiy fondlarning ishga tushirilishi va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi kabi ko'rsatkichlarda amaldagi narxlarda o'sib borgan. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YaIMdagi nisbati ko'rsatkichi ham 2018 yilga nisbatan (29,2%) 2019 yil (37,0%) oshgan bo'lsada keyingi yillarda bu o'zgarishlar 34,9%, 32,6% va 30,0%larga kamayib borganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu yillarda aholining asosiy ijtimoiy holatini aks ettiruvchi uy-joylar, umumiy maydoni (ming m²) va umumta'lim maktablari (ming o'quvchi o'rni), shifoxonalar (ming koyka) va ambulatoriya-poliklinika muassasalari, QVPni qo'shgan holda, bir smenada qatnovlar soni (ming) kabi ko'rsatkichlarda ham keskin o'zgarish tendensiyalarini kuzatishimiz mumkimn. Ya'ni uy-joylar, umumiy maydoni 2018 yilgi 13398,6 ming m² dan keyingi yillarda mos ravishda 15501,5 ming m², 12867,9 ming m², 14045,5 ming m² va 14612,6 ming m² larga yoki 2018 yilga nisbatan keyingi yillarda mos ravishda 115,7%. 96,0%, 104,8% va 109,0%larga o'zgarib turgan.


Umumta'lim maktablari ushbu yillarda mos ravishda 141,9%, 148,4%, 191,9% va 207,2%larga oshgan, shifoxonalar 121,3%, 93,4%, 106,6% va 57,4%larga o'zgarib turgan bo'lsa, ambulatoriya-poliklinika muassasalari, QVPni qo'shgan holda, bir smenada qatnovlar soni esa 103,5%, 36,0%, 34,0% va 31,0%larga kamayganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilishda band aholi soni ushbu yillarda mos ravishda 1205,5 ming kishi, 1324,6 ming kishi (109,9%), 1305,6 ming kishi (108,3%), 1350,8 ming kishi (112,1%) va 1325,9 ming kishi (109,9%) o'zgargan bo'lsa, jami bandlar sonida qurilishda band bo'lganlarning ulushi esa 9,1%, 9,8%, 9,9%, 10,0% va 9,6%larni tashkil qilgan (1-jadval).

**O‘zbekiston Respublikasida qurilish faoliyatining asosiy
ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari[14]**

Ko‘rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.*
Qurilishning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi, foizda	5,8	6,2	6,7	6,6	6,7
-qurilish tarmog‘ida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat mlrd.so‘m	21958,5	30449,9	37334,8	45557,4	55522,7
- o‘tgan yilga nisbatan foiz hisobida	114,3	122,9	109,5	106,8	106,6
Bajarilgan qurilish ishlari hajmi					
- amaldagi haqiqiy narxlarda mlrd.so‘m	51129,3	71156,5	88130,3	107492,7	130790,9
- o‘tgan yilga nisbatan foiz hisobida	114,3	122,9	109,5	106,8	106,6
Asosiy fondlarning ishga tushirilishi (amaldagi narxlarda mlrd.so‘m)	121953,6	122317,2	127291,6	173631,1	183979,4
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami (amaldagi narxlarda mlrd.so‘m)	124231,3	195927,3	210195,1	239552,6	266240,0
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YaIMdagi nisbati, foizda	29,2	37,0	34,9	32,6	30,0
Yangi qurilish va qayta tiklash hisobiga ijtimoiy-madaniy va uy-joyga oid ob'ektlarni foydalanishga topshirish					
- uy-joylar, umumiy maydoni, ming m ²	13398,6	15501,5	12867,9	14045,5	14 612,6
- umuta'lim maktablari, ming o‘quvchi o‘rni	80,4	114,1	119,3	154,3	165,4
- kasb-hunar kollejlari, ming o‘quvchi o‘rni	180,0	-	-	-	-
- shifoxonalar, ming koyka	6,1	7,4	5,7	6,5	4,2
- ambulatoriya-poliklinika muassasalar QVPni qo‘shgan holda, bir smenada qatnovlar soni, ming	20,0	20,7	7,2	6,8	6,1
Qurilishda band aholi soni, ming kishi	1205,5	1324,6	1305,6	1350,8	1325,9
Jami bandlar sonida qurilishda bah bo‘lganlarning ulushi, foizda	9,1	9,8	9,9	10,0	9,7


Qurilish tarmog‘ining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibini tahlil qilganimizda ko‘rdikki, 2018-2022 yillarda bino va inshootlar qurilishi mos ravishda 15992,0 mlrd.so‘m (ulushi 72,8%), 21740,7 mlrd.so‘m (71,4%), 27858,9 mlrd.so‘m (74,6%), 32329,3 mlrd.so‘m (70,9%) va 38286,0 mlrd.so‘mlarni (68,4%) tashkil qilgan bo‘lsa, fuqarolik obektlari qurilishida mos ravishda 2798,7 mlrd. so‘m (12,7%), 4711,7 mlrd.so‘m (15,5%), 5641,2 mlrd.so‘m (15,1%), 9559,5 mlrd.so‘m (21,0 %) va 11424,9 mlrd.so‘m (20,6%) hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida mos ravishda 3167,8 mlrd.so‘m (14,4%), 3997,5 mlrd.so‘m (13,1%), 3834,7 mlrd.so‘m (10,3%), 3668,5 mlrd.so‘m (8,1%) va 5811,8 mlrd.so‘m (10,5%)ni tashkil qilgan.



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida qurilish tarmog‘ida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat, mlrd.so‘m[14]


Ushbu yillarda o‘zidan oldingi yillarga nisbatan o‘shish sur‘ati bino va inshootlarni qurishda mos ravishda 108,6%, 121,1%, 113,5%, 101,1% va 104,2%larni, fuqarolik obektlarini qurishda mos ravishda 128,8%, 147,7%, 108,7%, 149,6% va 102,9%larni hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida esa 139,8%, 110,0%, 88,4%, 85,1% va 137,8%larga o‘zgarganligini ko‘rishimiz mumkin (3-rasm).

Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari bo‘yicha tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki keyingi yillarda qurilish ishlarining katta qismi yangi bino-inshootlarni qurishga tegishli. Masalan, 2018 yili 39397,7 mlrd.so‘m (umumiy qurilishda yangi qurilish ishlari ulushi 77,1%) to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, keyingi yillarda mos ravishda 48072,1 mlrd.so‘m (67,6%), 63801,1 mlrd.so‘m (72,4%), 80903,0 mlrd.so‘m (75,3%) va 89695,5 mlrd.so‘m (68,6%) qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obektlarni yaratishga qaratilgan. Bu borada eng yuqori ko‘rsatkich 2018 yil (77,1%) va 2021 yil (75,3%) va eng past ko‘rsatkich esa 2019 yil (67,6%) va 2022 yillarda (68,6%) kuzatilgan (4-rasm).



4-rasm. O'zbekiston Respublikasida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi, mlrd.so'm[14]


Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha, ya'ni yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibining tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, 2018 yili umumiy bajarilgan qurilish ishlarining 26,7% yirik tashkilotlarga, 50,0% kichik korxonalar va mikrofirmalarga va 23,3% norasmiy sektorga hisobiga to'g'ri kelgan. Keyingi yillarda esa mos ravishda 24,2%, 55,7% va 20,1%; 27,5%, 53,0% va 19,5%; 27,6%, 52,5% va 19,9% hamda 28,4%, 52,7% va 18,9% lari to'g'ri kelgan. Korxonalar turlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kichik korxonalar va mikrofirmalarga to'g'ri kelgan (5-rasm).



5-rasm. O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimlanishi, %[14]

Yirik tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi tahlil natijalaridan ham kuzatish mumkinki umumiy qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2018 yili 13677,7 mlrd.so'm (o'sish sur'ati 95,8%), 2019 yil 17195,6 mlrd.so'm (110,7%), 2020 yil


24263,6 mlrd.so‘m (125,7%), 2021 yil 29585,6 mlrd.so‘m (106,8%) va 2022 yil 37146,3 mlrd.so‘mni (110,0%) tashkil etdi (6-rasm).



6-rasm. O‘zbekiston Respublikasida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari[14]

Yirik tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi 2022 yili Toshkent shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 36,9%i), Qashqadaryo (26,8%i) va Toshkent (25,0%i) viloyatlariga to‘g‘ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2018 yili 25584,4 mlrd.so‘m (o‘shish sur‘ati 172,0%), 2019 yili 39620,2 mlrd.so‘m (136,5%), 2020 yili 46717,8 mlrd.so‘m (104,8%), 2021 yili 56413,8 mlrd.so‘m (104,8%) va 2022 yili 68953,3 mlrd.so‘m (106,3%)ni tashkil etgan (7-rasm).




7-rasm. O‘zbekiston Respublikasida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari[14]

Ko‘rib chiqilayotgan davrda (2022 yilda) kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (17425,5 mlrd.so‘m yoki umumiy ko‘rsatkichning 54,6%i), Toshkent (6326,4

mlrd.so‘m yoki 52,1%i) va Samarqand (5791,4 mlrd.so‘m yoki 66,1%i) viloyatlarida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 2018 yilda 11903,2 mlrd.so‘m (o‘shish sur‘ati 97,2%), 2019 yili 14340,6 mlrd.so‘m (108,2%), 2020 yili 17148,7 mlrd.so‘m (103,1%), 2021 yili 21493,3 mlrd.so‘m (112,2%) va 2022 yili 24667,5 mlrd.so‘mni (102,9%) tashkil etgan (8-rasm).



8-rasm. O‘zbekiston Respublikasida norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari[14]


Norasmiy sektor tomonidan 2022 yilgi bajarilgan ishlarning 17606,4 mlrd.so‘mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to‘g‘ri kelgan (103,4%), jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 3878,5 mlrd.so‘mni (100,2%), 3182,6 mlrd. so‘mlik yakka tartibda turar-joylarni ta‘mirlash ishlari bajarilib (103,4%) tashkil etdi. 2022 yilgi norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent viloyatida (2784,7 mlrd.so‘m yoki (o‘shish sur‘ati 103,6%), Toshkent shahrida (2697,1 mlrd.so‘m yoki 90,0%), Buxoro viloyati (2357,2 mlrd.so‘m yoki 111,0%) va Namangan viloyatida (2321,0 mlrd.so‘m yoki 111,8%) qayd etildi.

Mulkchilik shakli bo‘yicha davlat va nodavlat mulki bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmini tahlil natijalari ko‘rsatishicha 2018 yil davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan 2762,5 mlrd.so‘m (jamiga nisbatan ulushi 5,4%), 2019 yili 3854,8 mlrd.so‘m (5,4%), 2020 yili 3993,7 mlrd.so‘m (4,5%), 2021 yili 5603,3 mlrd.so‘m (5,2%) va 2022 yili 4490,4 mlrd. so‘m (3,4%) qurilish ishlari bajarildi (9-rasm).



9-rasm. O'zbekiston Respublikasida davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd.so'm[14]

Respublikamizda bajarilayotgan qurilish ishlari hajmining asosiy qismini nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlari tomonidan bajariladi. Ya'ni 2018 yili respublikada bajarilgan jami qurilish ishlarining 48366,8 mlrd.so'mi yoki 94,6% bevosita nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan. 2019 yili 67301,7 mlrd.so'm (94,6%), 2020 yili 84136,6 mlrd.so'm (95,5%), 2021 yili 101889,4 mlrd.so'm (94,8%) va 2022 yili esa 126276,7 mlrd.so'mlik (96,6%) qurilish ishlari bajarilgan (10-rasm).



10-rasm. O'zbekiston Respublikasida nodavlat mulk ob'ektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd.so'm[14]

2022 yilda nodavlat mulk obektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,5%), Jizzax viloyatida (99,0%) va Samarqand viloyatida (98,1%) qayd etildi.

Davlat va nodavlat mulk ob'ektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi 2018 yili 5,4% va 94,6%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yili mos ravishda 5,4% va 94,6%, 2020 yili mos ravishda 4,5% va 95,5%, 2021 yili mos ravishda 5,2% va 94,8% hamda 2022 yili mos ravishda 3,4% va 96,6%ni tashkil etgan (9-rasm va 10-rasm).

Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining har besh yillik natijalaridan kuzatish mumkinki hududlarda turli xil hajmdagi qurilish ishlari bajarilgan. Masalan, 2000 yilda Toshkent shahri, Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlarida mos ravishda 82,3 mlrd.so'm, 34,8 mlrd.so'm, 32,9 mlrd.so'm va 30,8 mlrd.so'mlar bilan eng yo'qori ko'rsatkichga erishgan bo'lsa, Jizzax, Sirdaryo, Navoiy va Surxondaryo viloyatlari mos ravishda 7,5 mlrd.so'm, 9,2 mlrd.so'm, 17,3 mlrd.so'm va 17,4 mlrd.so'mlik hajm bilan quyida ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda.

2005 yilda Toshkent shahri, Qashqadaryo, Buxoro va Samarqand viloyatlarida mos ravishda 297,9 mlrd.so'm, 161,7 mlrd.so'm, 152,7 mlrd.so'm va 132,1 mlrd.so'mlar bilan yo'qori ko'rsatkichga va Sirdaryo, Jizzax, Namangan viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi mos ravishda 26,7 mlrd.so'm, 37,3 mlrd.so'm, 69,5 mlrd.so'm va 61,7 mlrd.so'mlik hajm bilan quyida ko'rsatkichlarni, 2010 yilda Toshkent shahri, Qashqadaryo, Buxoro va Samarqand viloyatlarida mos ravishda 1228,4 mlrd.so'm, 699,2 mlrd.so'm, 580,0 mlrd.so'm va 519,7 mlrd.so'mlar bilan yo'qori ko'rsatkichga va Sirdaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi mos ravishda 134,9 mlrd.so'm, 211,5 mlrd.so'm, 282,7 mlrd.so'm va 237,1 mlrd.so'mlik hajm bilan quyida ko'rsatkichlarni, 2015 yilda Toshkent shahri, Qashqadaryo, Buxoro va Samarqand viloyatlarida mos ravishda 4113,0 mlrd.so'm, 2067,5 mlrd.so'm, 2061,7 mlrd.so'm va 2010,6 mlrd.so'mlar bilan yo'qori ko'rsatkichga, Sirdaryo, Jizzax, Namangan va Navoiy viloyatlari mos ravishda 478,9 mlrd.so'm, 759,2 mlrd.so'm, 1010,4 mlrd.so'm va 1019,2 mlrd.so'mlik hajm bilan quyida ko'rsatkichlarni, 2020 yilda Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida mos ravishda 18758,9 mlrd.so'm, 5089,6 mlrd.so'm, 5665,9 mlrd.so'm va 5387,2 mlrd.so'mlar bilan yo'qori ko'rsatkichga, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi mos ravishda 2192,1 mlrd.so'm, 2766,5 mlrd.so'm, 3032,0 mlrd.so'm va 3785,9 mlrd.so'mlik hajm bilan quyida ko'rsatkichlarni, 2021 yilda Toshkent shahri, Toshkent, Buxoro va Samarqand viloyatlarida mos ravishda 26409,3 mlrd.so'm, 9105,5 mlrd.so'm, 7371,2 mlrd.so'm va 7228,4 mlrd.so'mlar bilan yo'qori ko'rsatkichga va Sirdaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi mos ravishda 2883,0 mlrd.so'm, 3070,2 mlrd.so'm, 4272,1 mlrd.so'm va 4772,1 mlrd.so'mlik hajm bilan quyida ko'rsatkichlarni, 2022 yilda esa Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida mos ravishda 32946,1 mlrd.so'm, 12237,4 mlrd.so'm, 8895,4 mlrd.so'm va 8645,9 mlrd.so'mlar bilan yo'qori ko'rsatkichga va Sirdaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi mos ravishda 3260,0 mlrd.so'm, 3446,4 mlrd.so'm, 4878,4 mlrd.so'm va 5272,4 mlrd.so'mlik hajm bilan quyida ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda (2-jadval).

Hududlar bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd.so'm) [14]


	yillar								
	2000	2005	2010	2015	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	388,4	1453,1	8245,8	25423,1	51129,3	71156,5	87823,8	107447,6	130790,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	21,8	61,7	237,1	1219,3	2182,7	3315,4	3785,9	4772,6	5272,4
viloyatlar:									
Andijon	23,5	73,8	345,3	1341,9	2819,5	3539,1	4474,4	5619,1	6864,1
Buxoro	30,8	152,4	580,0	2061,7	3581,2	4368,1	5387,2	7371,2	8448,7
Jizzax	7,5	37,3	211,5	759,2	1564,3	2510,6	2766,5	3070,2	3446,4
Qashqadaryo	34,8	161,7	699,2	2067,5	3701,1	4365,3	4928,2	6071,9	7793,8
Navoiy	17,3	98,8	418,9	1019,2	2280,8	3464,0	4392,9	5079,0	5854,9
Namangan	21,6	69,5	347,9	1010,4	2257,6	3471,0	4491,8	5610,3	6653,2
Samarqand	32,9	86,8	519,7	2010,6	3299,0	4527,2	5665,9	7228,4	8895,4
Surxondaryo	17,4	76,7	335,9	1351,3	2879,7	3979,7	4690,6	5863,1	6521,8
Sirdaryo	9,2	26,7	134,9	478,9	1001,1	1926,2	2192,1	2883,0	3260,0
Toshkent	25,5	132,1	509,9	1562,0	3006,7	5594,1	6930,6	9105,5	12237,4
Farg'ona	30,0	90,2	489,2	1649,0	2942,7	4162,8	5089,6	7024,2	8645,9
Xorazm	28,5	74,4	282,7	1174,7	1878,3	2496,8	3032,0	4272,1	4878,4
Toshkent shahri	82,3	297,9	1228,4	4113,0	10870,7	16256,9	18758,9	26409,3	32946,1

Hududlar kesimida 2022 yilda aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Toshkent shahri 10968,8 ming so'm (yoki, 2021 yilga nisbatan 98,0%) ko'rsatkich bilan egalladi, undan keyingi o'rinlarni mos ravishda Navoiy viloyati – 5803,2 ming so'm (107,1%), Buxoro viloyati – 4184,2 ming so'm (98,7%), Toshkent viloyati – 4094,1 ming so'm (105,9%), Sirdaryo viloyati – 3704,2 ming so'm (98,5%) egallagan.

Respublikamizda keyingi yillarda turar-joylarni ishga tushirish bo'yicha ham sezilarli o'zgarishlar bo'lmoqda. Ya'ni, respublikamizda turar-joylarni ishga tushirish 2006 yilda 6532,3 ming metr kvadratni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich keyingi yillarda o'sib borgan va ayniqsa 2010 yilda 8859,2 ming metr kvadratni, 2012 yilda 10367,7 ming metr kvadratni, 2017 yil, 2018 yil, 2019 yil, 2020 yil, 2021 yil va 2022 yillarda mos ravishda 11456,4 ming metr kvadrat, 13398,6 ming metr kvadrat, 15501,5 ming metr kvadrat, 12677,4 ming metr kvadrat, 13643,4 ming metr kvadratni va 14189,0 ming metr kvadratni tashkil qilgan. Tahlil qilinayotgan yillarda oldingi yilga nisbatan yuqori o'sish darajasiga 2010 yil, 2012 yil, 2018 yil va 2020 yil va 2021 yillarda erishgan. Ya'ni, ushbu yillarda mos ravishda 115,4%, 112,7%, 117,0%, 115,7% va 107,6%larni tashkil qilgan. Ushbu tahlil qilinayotgan yillarda oldingi yilga nisbatan kamayish 2016 yil va 2020 yilda kuzatilgan. Ya'ni mos ravishda 93,6% va 81,8% tashkil qilgan (11-rasm).

2022 yilda umumiy maydoni 14189,0 ming kv.m turar joy ishga tushirilib, ulardan 96,1% yoki 13636,1 ming kv.m turar joylar yakka tartibda qurilgan bo'lib, 233,6 ming kv.m yoki 1,6% namunaviy loyihalar asosida qurilgan turar joylar, 319,3 ming kv.m yoki 2,3% boshqa xo'jalik yurituvchi subektlar tomonidan ishga tushirilgan turar joylarni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 2022 yilda 75858 xonadon qurib ishga tushirilgan bo‘lsa (ularning umumiy maydoni 14189,0 ming kv.m), shundan hududlar kesimida eng ko‘p xonadon qurilib ishga tushirilgan Namangan, Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida mos ravishda 10182; 7578 va 7419 xonadonlarni tashkil qilgan bo‘lsa, eng kam xonadon qurilib ishga tushirilgan Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida mos ravishda 572; 2670 va 3355 xonadonlarni tashkil qilgan.



11-rasm. O‘zbekiston Respublikasida turar-joylarni ishga tushirish [14]

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyoti tarmoqlari qatorida qurilish tarmog‘i nafaqat iqtisodiyotning asosiy fondlarini yaratuvchi uchastkasi sifatida, balki mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlarni hamda turli xususiyatlarga ega bo‘lgan ijtimoiy sohadagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishda muhim o‘rin va ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham ushbu sohani rivojlantirish jarayonining nazariy jihatlarini o‘rganish bosqichida quyidagi xulosalar va takliflarga keldik:

Qurilish tarmog‘i mahsuloti bo‘lib, mamlakatning xo‘jalik majmuasi asosiy fondlarini tashkil qiluvchi qurilishi tugallangan va ekspluatatsiyaga topshirilgan zavod va fabrikalar, temir va avtomobil yo‘llari, elektr stansiyalar, irrigatsiya kanallari, portlar, uy-joylar va boshqa ob'ektlar hisoblanadi. Qurilish tarmog‘i umum va maxsus qurilish, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarini, qurilish birlashmalariga kiruvchi qurilish sanoati korxonalarini, shuningdek qurilish-montaj ishlari (QMI)ni bajaruvchi barcha tashkilotlar faoliyatini birlashtiradi. Qurilish tashkilotlariga ro‘yxatdan o‘tkazilgan va qurilish faoliyati uchun litsenziyaga ega bo‘lgan, shuningdek buyurtmachilar bilan shartnoma asosida ishlarni bajaruvchi barcha mulk shakllaridagi yuridik shaxslar kiradi;

Kapital qurilish sohasida qurilish ishlarini metallolom va metall konstruksiyalar, sement, yog‘och materiallari, qurilish mashinalari, transport vositalari, yoqilg‘i va energetika resurslari bilan ta‘minlovchi 70dan ortiq milliy iqtisodiyot tarmoqlari bevosita yoki bilvosita qatnashadi. Qurilishda 50% qurilish materiallari sanoati, 18%ga yaqin metallprokat, 40% yog‘och materiallar, 10%dan ortiq mashinasozlik sanoati mahsulotlari ishlatiladi. Qurilish materiallari, konstruksiyalari va texnikalarini tashishda amalda barcha transport turlaridan foydalaniladi (avtomobil, temir yo‘l, daryo, dengiz va havo transportlari). Qurilish sarf-xarajatalari tarkibida transport xarajatlari qiymati 20%gacha yetadi;

Qurilish milliy iqtisodiyotning mustaqil alohida tarmog‘i bo‘lib, uning mahsuloti sifatida yaratilayotgan asosiy fondlarni yaratish jarayonida ishchi xodimlar band bo‘ladi hamda mehnat vositalari (texnika) va mehnat predmetlari (materiallar) ishlatiladi. Qurilish jarayoni asosiy elementlarining o‘zaro harakati natijasida esa natural (bino, inshoot va ob'ektlar) va qiymat (pul mablag‘lari) ko‘rinishidagi pirovard qurilish mahsuloti yaratiladi. Qurilish jarayoni uchta asosiy bosqichga ajratiladi: 1) qurilishga tayyorgarlik ishlari; 2) qurilish jarayonining o‘zi; 3) tayyor holdagi qurilish ob'ektini ekspluatatsiyaga topshirish;

Qurilish statistikasi amaliyotida asosiy ishlab chiqarish fondlari quyidagicha baholanadi: asosiy vositalar to‘liq qiymati bo‘yicha; asosiy vositalar to‘la tiklash bahosi bo‘yicha; asosiy vositalar qoldiq qiymati bo‘yicha; asosiy vositalarni tugatish qiymati bo‘yicha; asosiy vositalar o‘zgarish bahosi bo‘yicha; asosiy vositalar yillik o‘rtacha bahosi bo‘yicha; asosiy vositalar yil oxiridagi qoldiq bahosi bo‘yicha.

Shuningdek, bizning fikrimizcha, qurilish sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirishda asosiy jihatlar quyidagilarga qaratilishi lozim: Birinchidan, ustuvor qurilish tarmog‘ini ishlab chiqarish va turar-joy qurilishini har bir hududlar bo‘yicha rivojlantirish va bu qurilish tarmoqlarining outsorsing tizimi bilan muvofiq holda ishlashini ta‘minlash; Ikkinchidan, ishlab chiqarish infratuzilmalari: injener kommunikatsiya tizimi, transport va aloqa tarmoqlarini rivojlantirishda ekologik jihatlariga e‘tiborni qaratish; Uchinchidan, hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etish, ishlab chiqarish quvvatlarini to‘g‘ri taqsimlash va iqtisodiy yaxshi rivojlanmagan hududlarda tabiiy va ishchi kuchi resurslaridan kompleks foydalanishni ta‘minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Давлат статистика қўмитаси. Ўзбекистон Республикасида қурилиш ишлари 2021 йил январ-декабр.
2. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Фармони”. 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон.

4. Ш.А.Исамухамедова, И.Х. Давлетов, М.С.Саидов, Д.А.Бердиева Қурилиш иқтисодиёти: Ўқув қўлланма, 1-қисм. - Т.: ТАҚИ, 2011. – 150 бет.
5. Бузырёва В.В. Экономика строительства. Учебное пособие .- М.: 2017.
6. Мирзанов М.Е. Совершенствование развития кадрового потенциала в модернизируемой экономике (на примере капитального строительства). - Т.: Изд. “Fan va texnologiya”, 2010.-168 с.
7. М.Ю.Исоқов Капитал қурилиш иқтисодиёти (маърузалар матни) - Т.: ТДИУ, 2016. - 219 б.
8. Жуков Д.М. Экономика и организация жилищно-коммунального хозяйства города: Учеб. пособие для студ. высш. учеб.заведений.- М.: Изд-во “ВЛАДОС-ПРЕСС”, 2013.- 96 с.
9. Ефименко И.Б., Плотников А.Н. Экономика отрасли (строительство): учеб.пособ. – М.: Вузовский учебник, 2009. – 359 с.
10. Э.Х.Махмудов Корхона иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2014, - 208 б.
11. Жуков Д.М. Экономика и организация жилищно-коммунального хозяйства города: Учеб. пособие для студ. высш.учеб.заведений.- М.: Изд-во “ВЛАДОС-ПРЕСС”, 2013.- 96 с.
12. www.iut.nu (официальный сайт Международного союза квартиро съёмщиков – InternationalUnionofTenants
13. Ўзбекистон рақамларда 2022. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси. Тошкент-2023 й. Статистик тўплам маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоблари.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekistonda qurilish. Toshkent-2023.